



МАКТАBDAN VA SINFDAN TASHQARI MUSIQIY FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI O'RNI HAMDA AHAMIYAT

Himmatova Nargiza Pardayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabdan va sinfdan tashqari musiqiy faoliyatni amalga oshirishda o'qituvchi faoliyatini o'rni hamda ahamiyat haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ommaviy musiqiy mashg'ulot, maktabdan va sinfdan tashqari, ashula va raqs ansamblari.

O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

Musiqqa madaniyati o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy, musiqiy ishlar rejasi, musiqqa o'qituvchisi va maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar mudiri bilan hamkorlikda, o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga qarab, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni xisobga olgan xolda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqiy mashg'ulotlarning har biri aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uni asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar xisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi.

To'garak ishlarini esa, ish rejasini musiqqa o'qituvchising o'zi, o'z xohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati, xohish-istagi, qiziqishi, ovozigacha qarab tanlab oladi va turli to'garaklar tuzadi. Haftasiga 2-3 bor to'garakni guruhlarga bo'lib ishlaydi.

To'garak ishlarining asosi musiqqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli, qiziquvchan, musiqqa darslarida aktiv qatnashadigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati, qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqqa to'garagiga jalb etiladi. To'garak faoliyati faollashtiradigan narsa - bu maktab sahnasidir.



O'quvchilar tadbirlarda, qo'shiqlar, raqslar ijro etib, maktab jamoasi oldida e'tibor qozonib, tuman, shahar, Respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashadilar. Bu ularni o'z mehnatidan zavqlanishi xis-tuyg'ularini Ona-vatanga muhabbat, musiqa san'atiga hurmat, do'stlari orasida mehr-muhabbat tuyg'usini oshirib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi o'z imkoniyatlariga qarab turli to'garaklar tuzish mumkin:

1. Xor
2. Ashula va raqs ansambllari
3. Vokal ansambllari
4. Cholg'ular ansambli (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar, changchilar)
5. Raqs ansambli
6. Orkestrlar (damli cholg'ular, xalq cholg'ulari orkestri,)
7. Yakkaxon qo'shiqlar
8. An'anaviy xonandalik

Maktabdan tashqari musiqiy tarbiya shakliga bolalar musiqa maktablari, bolalar ijodiyot markazlari, bolalar teatrlari, muzeylar kiradi. Mazkur muassasalarga qatnashadigan bolalar ham o'qituvchi nazoratida bo'lib, maktab hayotiga, ularning faol qatnashuvlarini ta'min etishi lozim. Maktab hayotida boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisining o'rni beqiyosdir. Musiqa darslaridan tashqari, zamon talabiga mos ravishda tadbirlar tayyorlab, o'quvchilarga san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ma'naviyat va ma'rifat“ jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida“gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaviy ishlar huquq-



tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo' - mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L. Qo'ldoshev "Maktabda xor to'garagi" T. 1975.
2. O. Fayziyev va boshqalar. "O'zbekiston maktablarida nafosat tarbiyasini tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma" T. 1992.
3. N. Norxo'jayev "Qo'shiqlar to'plami". T. 1996.